

KONSTITUTSIYA - ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI

Norqulova Nordona Abdurahim qizi

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi

va agrotexnologiyalar instituti

yurisprudensiya yo'nalishi 2-kurs talabasi

norqulovanordona@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada konstitutsiyaning yaratilishi, o'ziga xos xususiyatlari, mohiyati va fuqarolarning huquq va erkinligini ta'minlashning yagona manbai ekanligi tahlil qilinadi. Konstitutsiya fuqarolarning huquq va erkinligini kafolatlaydi, ularni himoya qiladi, shuningdek, davlatda demokratiya, jamiyatning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ahamiyati, davlat va jamiyat hayotida tutgan o'rni, fuqarolarning huquqiy ong va huquqiy bilimlarini oshirishdagi roli hamda boshqa huquq tizimlariga ta'siri yoritilgan.

Kalit so'zlar: *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, huquqiy davlat, demokratiya, ijtimoiy adolat, fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniylik, konstitutsiyaviy islohatlar, huquqiy ong, huquqiy madaniyat.*

THE CONSTITUTION IS THE GUARANTEE OF A FREE AND PROSPEROUS LIFE

Karakalpakstan Institute of

Agriculture and Agrotechnologies,

jurisprudence, 2nd year student

Norqulova Nordona Abdurahim kizi

norqulovanordona@gmail.com

ANNOTATION

This article analyzes the creation of the constitution, its characteristics, essence and the fact that it is the only source of ensuring the rights and freedoms of citizens. The Constitution guarantees the rights and freedoms of citizens, protects them, and also affects the development of democracy and society in the state. The article describes the importance of the Constitution of the Republic of Uzbekistan, its role in the life of the state and society, its role in increasing the legal awareness and legal knowledge of citizens, and its impact on other legal systems.

Key words: *Constitution of the Republic of Uzbekistan, legal state, democracy, social justice, rights and freedoms of citizens, legality, constitutional reforms, legal consciousness, legal culture.*

КОНСТИТУЦИЯ – ГАРАНТИЯ СВОБОДНОЙ И БЛАГОДАРНОЙ ЖИЗНИ

Каракалпакский институт сельского хозяйства и агротехнологий, юриспруденция, студентка 2 курса Норкулова Нордона Абдурахим кызы norqulovanordona@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется создание конституции, ее особенности, сущность и то, что она является единственным источником обеспечения прав и свобод граждан. Конституция гарантирует права и свободы граждан, защищает их, а также влияет на развитие демократии и общества в государстве. В статье описывается значение Конституции Республики Узбекистан, ее роль в жизни государства и общества, ее роль в повышении правосознания и правовых знаний граждан, ее влияние на другие правовые системы.

Ключевые слова: *Конституция Республики Узбекистан, правовое государство, демократия, социальная справедливость, права и свободы граждан, законность, конституционные реформы, правосознание, правовая культура.*

Konstitutsiya davlatning asosiy qonuni, shu bilan birga fuqarolarning huquq va erkinligini ta'minlashning yagona manbai hisoblanadi. Konstitutsiyada fuqarolarning huquqlari bilan bir qatorda ularning majburiyatlari ham belgilangan bo'lib, fuqarolarning huquqlarining kafolatlariga ham alohida bob ajratilgan. Fuqarolarning huquq va erkinligini ta'minlash, himoya qilish davlatning asosiy maqsadi hisoblanadi. Inson uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat ekanligi, uni buzgan shaxs davlat va jamiyat oldida javobgar bo'lishi bilan birga eng o'g'ir jazo qo'llanilishi ham ta'kidlab o'tilgan. Demokratiya -umuminsoniylik prinsiplariga asoslanadi, demokratik davlatda demokratik huquq va erkinliklar konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilingan bo'ladi.

Hozirgi kunlarda davlatimiz konstitutsiyasida ko'plab o'zgarishlar amalga oshirildi. Bu islohotlarning bosh maqsadi fuqarolarga erkinlik va qulaylik tug'dirish hisoblanadi. Yangi tahrirdagi konstitutsiyaning qabul qilishi O'zbekiston uchun balki

biz yoshlar uchun ham kutilmagan yangilik bo'ldi desam hech mubolag'a bo'lmaydi. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi, undagi bir qancha moddalarning o'zgarishi, yanada ko'plab imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Konstitutsiyamizning muqaddimasida- “ biz , O'zbekistonning yagona xalqi, inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadryatlarga, davlat suvereniteti prinsipiga sodiqligimizni tantanali ravishda e'lon qilib, demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlilik g'oyalariga sadoqatimizni namoyon etib, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimati oliy qadryat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish borasida hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak ma'suliyatimizni anglagan holda, davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasiga, shuningdek, jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma'naviy merosiga tayangan holda, fuqarolarning munosib hayot kechirishi, davlatimiz gullab-yashnasini ta'minlagan maqsada ushu konstitutsiyani qabul qilamiz va e'lon qilamiz “ -deb belgilangan.

Konstitutsiya davlatning rivojlanishiga shu bilan birga xalqaro davlatlarda o'z o'rnini topishiga ham alohida ahamiyatga ega. Konstitutsiyaning 4 bob tashqi siyosatga bag'ishlanadi va u 17-18- moddalardan iborat. Xalqaro davlatlar bilan tinchliksevar siyosatni amalga oshiradi. Konstitutsiyamiz yaralishida xalqaro hujjatlar foydalanilgan bo'lib, bu hujjatlarning inson huquq va erkinliklari qay darajada ta'minlayotganidan xulosa qilgan holatda yaratilgan. Konstitutsiyamizning ikkinchi bo'limi inson va fuqarolarning asosiy huquqlari va erkinliklari va burchlari, beshinchi bobdan o'n birinchi boblarini o'z ichiga oladi. Bu boblarning har birida fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga alohida e'tibor berilgan. Fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Konstitutsiyamizda barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, irqi, dini, jinsi, millati, tili, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar. O'zbekiston hududidagi barcha fuqarolar konstitutsiyaga belgilab qo'yilgan huquqlardan foydalanish huquqiga ega va buni hech kim cheklab qo'yolmaydi, faqat sud qarori bilan cheklanishi mumkin. Fuqarolarning huquq va erkinligini ta'minlashda inson huquqari bo'yicha milliy institutlarning o'rnini katta. Davlat inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berishi konstitutsiyada belgilangan. Bundan ko'rinadiki,

- milliy institutlar mamlakatda mavjud inson huquqlarini himoya qilish shakillarini to'ldiradi;
- jamiyatning rivojlanishiga, huquqiy madaniyatning yuksalishiga ko'maklashadi;
- ularning faoliyatini tashkil etishda davlat yordam beradi;

Fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi organlariga prokratura, advakatura, ichki ishlar, adliya vazirligi, sud, tashkilotlarga Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) va O'zbekiston Respublikasining Milliy markazi fuqarolarning huquqlarini himoya qilishadi. Milliy markazga quyidagi vazifalar yuklatilgan:

- inson huquqlari bo'yicha milliy qonunchilik va xalqaro huquq normalarini amalga oshirish strategiyasini ishlab chiqish va ularni amalga oshirishga ko'maklashish;
 - inson huquqlari sohasida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish;
 - mamlakatda inson huquqlari ahvoli haqida milliy ma'ruzalar tayyorlash va boshqalar;
- Markazda fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, fuqarolarni huquqiy ma'lumotlar bilan ta'minlash borasida ham ko'plab vazifalar yuklatilgan.

Davlat fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va moddiy jihatdan rivojlangan bólishi lozim. Sababi davlat fuqarolarning huquqlarini himoya qilishi uchun avvalo ózini moddiy jihatdan ta'minlashi va fuqarolariga ma'lum bir sharoit yaratib berishi lozim. Qachonki davlat rivojlansa, u yerdagi aholining huquq va erkinliklarini lozim darajada himoya qila oladi. Prezidentimizning “ Hammamiz yaxshi tushunamizki, qonunlarni qabul qilish — bu ishning bir qismi, xolos ”- deb ta'kidlaydi. Buning sababi davlatda fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati rivojlanmasa, qabul qilinayotgan qonunlarning ma'nosini anglamasa o'zlarining huquqlaridan qanday foydalanish kerakligini bilishmasa, bunday davlat kelajakda rivojlana olmaydi. Shu uchun ham davlatimiz rahbari fuqarolarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini rivojlantirishga, óz huquqlaridan qonun doirasida foydalanishga shu bilan birga davlatning rivojlanishiga ham hissa qóshishlari kerakligini ta'kidlaydi. Insonlarning huquqlarini himoya qilish masalasi faqat davlatning ichki masalasi emas, balki xalqaro ahamiyatga egadir. Inson huquqlarini himoya qilishda xalqaro tashkilotlar va ular tomonidan qabul qilingan qonun hujjatlari ham alohida ahamiyatga ega. "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" , "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro pakt, "Fuqarolar va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro pakt va boshqa normativ huquqiy hujjatlar kiradi.

Konstitutsiyamizning 54-moddasida “ Insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning oliy maqsadi ” - deb belgilangan. Ushbu moddaning 2-qismida, “ Davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi ”, - deb qayd qilingan. Bu borada davlat tegishli va yetarli vakolatlarga ega. Davlat tomonidan huquq va erkinliklarni himoya qilish uchun qonunlarning yaratilishi, davlat organlari tizimida o'rnatilishi huquq va erkinliklarga katta ahamiyat berilayotganidan darak beradi. Huquq va erkinliklar qonunlarda mustahkamlab qo'yilib, ularning amalga oshirishi, ta'minlanishi uchun qo'shimcha choralar ko'rilmasa, kafolatlar tizimi bo'lmasa, unda huquq va erkinliklar

qog'ozda qolib ketaveradi. Buning oldini olish uchun fuqarolarimiz o'z huquqlarini lozim darajada tushunishlari va huquqlari buzilganini sezishganda darhol tegishli davlat organiga murojaat qilishlari lozim. Qonun bir tomonlama emas ikki tomonlama ishlaydi, bu degani siz talab qilmasanggiz, biz ham jim turamiz. Shuning uchun har bir fuqaro huquqiy ong va huquqiy madaniyatini doimo rivojlantirib borishi kerak.

Konstitutsiyamizning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, u o'zida nafaqat huquqiy va siyosiy fikrlarni balki boy tariximizning tajribalarini ham o'zida mujassamlashtirgan. Buni biz konstitutsiyamizning muqaddima qismida ko'rishimiz mumkin. Konstitutsiyaning 15- moddasida " O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi" -deb belgilab qo'yilgan. Bu konstitutsiyaning qonunchilik tizimidagi barcha qonuniy hujjatlar ichida eng yuqori o'rinda turishini va boshqa normativ-huquqiy hujjatlardan ustunligini bildiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam konstitutsiya davlatning asosiy qonuni shu bilan bir qatorda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash vositasi hisoblanadi. Konstitutsiya- davlat va jamiyat hayotining ajralmas bir qismi bo'lib, har bir fuqaroning huquqi, erkinligi va siyosiy manfaatlarini himoya qiluvchi asosiy qonuniy hujjat hisoblanadi. Unda insonning qadr-qimmati sha'ni hayoti, ulug'lanadi, farovon hayotning kafolatlanishiga xizmat qiladi. Konstitutsiya nafaqat davlat boshqaruvining adolatligini, balki xalqning erkin va farovon yashashi, munosib sharoitida mehnat qilishi, bilim olishi va o'z orzulari va maqsadlarini amalga oshirishi uchun munosib hayot yaratib beradi. Biz konstitutsiyaviy huquqlarimizdan erkin foydalanib, davlat rivojiga ulkan hissa qo'shishimiz lozim. Bizning huquqlarimizni himoya qiladigan ham erkinligimizni ham ta'minlaydigan bu bosh qomusimiz hisoblanadi. Konstitutsiya bizning huquq va erkinligimizning tayanchi bo'lib xizmat qiladi. Konstitutsiya davlatda adolatli, erkin va farovon hayot qurishimizning qonuniy kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-Toshkent: 2023.
2. O.T. Husanov Konstitutsiyaviy huquq: darslik.-Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2024.
3. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi.-Toshkent. 2021.
4. www.lex.uz. -O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi.
5. www.ombudsman.uz -Oliy Majlis inson huquqlari bo'yicha vakili.
6. www.nhrc.uz - O'zbekiston Respublikasi Inson huquqlari bo'yicha milliy markazi.